XALQ DEPUTATLARI QO‘QON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 14-oktabr VII-11-79-11-166-K/25 Qo‘qon shahar

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qaroriga muvofiq Qo‘qon shahridagi 2 ta geografik obyekt (ziyoratgoh)ni nomlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida” 2012-yil 16-oktabrdagi 295-sonli qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 4-iyuldagi 03/08-7367-sonli xatiga ilova qilingan Ekspert komissiyasining 2025-yil 2-iyuldagi 05-19-10852-son xulosasiga asosan, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasini qo‘llab, xalq deputatlari Qo‘qon shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida” 2012-yil 16-oktabrdagi 295-sonli qaroriga muvofiq Qo‘qon shahar Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risidagi Qo‘qon shahar hokimining maslahatchisi D.Alimovaning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qo‘qon shahar komissiyasi tomonidan geografik obyektlarni qayta nomlash bo‘yicha taqdim etilgan hamda qonun talablariga muvofiq deb topilgan geografik obyekt (ziyoratgoh) nomlari 1-ilovaga asosan tasdiqlansin, shuningdek, belgilangan tartibda davlat reyestri bazasiga kiritilsin.

3. Qo‘qon shahar hokimligi Axborot xizmati (U.Norboyev), “Qo‘qon sadosi” gazetasi bosh muharriri (A.Mirsaidov)larga ushbu qarorni keng ommaga yetkazish tavsiya etilsin.

4. Belgilansinki, ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5.Mazkur qaror bajarilishiga shahar hokimining o‘rinbosari A.Sulaymonov, Kadastrlar palatasi Qo‘qon shahar filiali rahbari B.Erkabayevlar shaxsan mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

6. Ushbu qaror bajarilishining nazorati Xalq deputatlari Qo‘qon shahar Kengashining Ta’lim, sog‘likni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya bo‘yicha doimiy komissiya raisi O‘.Tojiyeva hamda Qo‘qon shahar hokimining maslahatchisi D.Alimovalar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi  USMONOV MARUF AZAMOVICH

Xalq deputatlari Qo‘qon shahar
Kengashining
2025-yil 14-oktabrdagi
VII-11-79-11-166-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahridagi xatlovdan o‘tkazilgan ziyoratgohlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha qonun talablariga muvofiqlashtirilgan nomlari

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Qonun talablariga muvofiqlashtirilgan ko‘cha nomlari
1.	Ziyoratgoh	Shayxon MFY	Shoirlar ziyoratgohi	Ijodkorlar ziyoratgohi
2.	Ziyoratgoh	Mo‘yimuborak	Nomsiz	Mo‘yi muborak ziyoratgohi